

TARBIYASI OG‘IR O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING ROLI

Yusupova Sayyora Xolmamatovna

Andijon viloyati Ulug‘nor tumani 8-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maqolada tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, maktab psixologi ularning oilasi, do‘stlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi, va boshqa amaliy usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: psixolog, oilaviy sharoit, nazoratga olinish, tarbiyasi og‘ir bolalar.

“Yomon bolalar bo‘lmaydi, balki ma’suliyatsiz va loqayd kattalar bo‘ladi...”

Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag‘ishlovchi shiddatli lokomativ desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko‘p qismini o‘smirlar tashkil qiladi. O‘smirlar haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish va amaliyotda qo‘llash yosh avlod tarbiyasiga berilgan e’tibor desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘smirlilik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlarida nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlilik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. “Endi o‘smir bola emas biroq kata ham emas” ayni shu ta’rif o‘smirlilik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlilik - bolalikdan kattalikga o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagи turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlilik balog‘atga yetish bosqichi bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal vaziyatlarning paydo bo‘lishi bilan ham

harakterlanadi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobilyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'quvchilarga qiziqishga intiladilar. Hammamiz ham deyarli har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turli-tuman ko'rinishlari - tajovuzkorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to'qnashamiz. Shu kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ko'p yillardan beri qator savollarga javob izlamoqdalar.

Bunday axloqning sababi nimada bo'lishi mumkin?

Nima insonni qayta – qayta o'ziga va atrofdagilarga zarar keltirishga majburlamoqda?

Bundan qanday qutilish mumkin?

Va nihoyat "og'ishgan xulq", "tarbiyasi og'ir", "deviant" atamasidan foydalanish qonuniymikan?

Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdag'i harakat yoki holatga nisbatan qaramligi. Misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik.

Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid,) - insonning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga zid bo'lgan, ma'naviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor ko'p hollarda uydan ketib qolish, "o'z dunyosiga" berkinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, o'zini-o'zi o'ldirishga, suiqasd qilishda namoyon bo'ladi.

Suitsidal xulq-atvor – insonning suiqasd qilishi yoki o'zini-o'zi o'ldirish haqida fikrlaydigan, rejalashtiradigan va amalga oshiradigan xulq-atvor. Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yordagi zidligi va ruxiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi aloxida qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin. Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yordan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yordaga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yordaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytildi.

O'smirdagi deviant axloqning muomala belgilari:

- xis-hayajonli portlashlar;
- kattalar bilan janjallar;
- kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;
- o'z xatolarida boshqa birovlarni ayplash;
- jizzakilikning eng keskin darajasi;
- badjaxllik, darg'azablik, qasoskorlik, kek saqlash;

Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida ikki xil qarash mavjud bo'lib, birinchisi tabiiy-biologik, ikkinchisi ijtimoiy reduksion fikrlardir. Tabiiy-biologik qarashlarga ko'ra, deviant xulq-atvorning kelib chiqishida biologik omillarning roli alohida o'rinni tutadi. Genetik tuzilishning o'ziga xosligi, biohimik boshqarishning buzilishi, asab tizimi mexanizmlari ish faoliyatining buzilishi va boshqalar shunday omillardandir. Ijtimoiy-reduksion nazariyalar har qanday ichki, shu jumladan, psixologik (shaxs dispozitsiyalari) rolini inkor etgan holda og'ishgan xulq-atvorni ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham tashqi (jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy), ham ichki (psixologik) omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omillarga ishsizlik, hayot tarzining pastligi, jamiyatda u yoki bu qatlaming yashash darajasi va boshqalar kiradi. O'smirlarda destruktiv xulqning paydo bo'lishi ya'ni xulqiy og'ish psixologik xususiyatlar bilan bog'liq. Bu davrda bolalar qaysar bo'ladi. Aksariyat o'smirlar hayotda mustaqil bo'lib, o'z o'rnini topishga harakat qilishadi. O'zlarini katta insonlardek his qilishadi. Ular romantik bo'lib, tortinish nimaligini bilmaydilar va yolg'izlikni yoqtiradilar. Jinsiy yetilish hammada har xilda kechadi. Ba'zi o'smirlarda bu davrni juda og'ir kechib, juda ta'sirchan bo'lib qoladi. Ba'zida xulqning buzilishida oilaning ham ta'siri bo'ladi. O'smir psixologiyasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslik, oilada tarbiyaning noto'gri usullaridan foydalanish bola va ota-onada o'rtasida konfliktli holatlarni yuzaga keltiradi va natijada munosabatlarga shikast yetadi. Endi o'smir o'g'il qizlar e'tiborni ko'chadan qidira boshlaydi, yoki o'smirlar bilan yetarli darajada muloqat qilmasligi ham shu holatlarga olib keladi. Kattalarga nisbatan ishonchsizlik, tushunmovchilik, berahmlikni ko'ramiz.

Har galgidek bola yoki o'smir yolg'iz. Bu yolg'izlik tartibbuzarlikga, shavqatsizlikga, qo'pollikka olib keladi. Bunday holatlarda kattalar bilan munosabati yomon bo'lganligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan tarbiyaning buzilishi hamda xulqning og'ishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilar keltirilgan.

Tarbiya buzilishi va xulq ogishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar:**Ijtimoiy omillar:**

- erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan qochish;
- qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik;
- o'z(men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik;
- moddiy kam ta'minlanganlikni his qilish, ota-onas xulq-atvoridan uyalish;

Oilaviy omillar:

- ota-onas, o'qituvchi, kattalar va bolalar o'rtasida muloqotdagi muammolar;
- bolalarga kattalar tomonidan diqqat e'tiborning yetishmasligi;
- ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro tushunishning yo'ligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi;
- ota-onalarning o'gil va qiz bolalarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;

Shaxsiy omillar:

- tengdoshlar, o'rtoqlar, sinfdoshlari, o'z-o'zini tushunmaslik va o'ziga salbiy munosabat;
- hayotiy yo'naliishlardagi orzu va havaslar;
- ichki ruhiy yolg'izlik, o'zgalarning tushunmasligi;
- baxtsizlikdan qiynalish, shaxsiy qiyinchiliklar;
- shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan havotirga tushish, irodasizlik;

Fiziologik omillar:

- agressivlik, jahldorlik, asabiylashish va ruhiy zo'riqish;
- bolaning ko'p kasal bo'lishi;
- qo'zg'aluvchanlikning kuchayishi;
- o'zini-o'zi boshqara olmaslik;
- o'zlashtirishda aqlan qolib ketish;
- o'quvchining aqlan zaiflashishi;

- psixofiziologik va jinsiy tomondan bir xilda rivojlanmaganlik;
- tug‘ma xususiyatlar;
- tug‘ma nuqsonlar;

O‘quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o‘ziga xos tomonlar, ular o‘rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta’lim maqtablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya’ni psixotrening va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Maktablarda bolalarga nisbatan ba’zan "tarbiyasi qiyin bola" jumlesi ishlatiladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko‘p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari ro‘yhatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezorilik va o‘g‘rilikka moyil o‘quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatadi, ularning xulqida o‘zini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi. Pedagog va psixologlar tomonidan eng avvalo xulqida og‘ish kuzatilayotgan bolalarning oilaviy ahvoli o‘rganiladi, mahalla va oila bilan ya’ni bolaning ota-onasi yoki unga mas’ul shaxs bilan uzviy aloqa o‘rnatishi, o‘quvchining darslarda ishtirokini va darsdan tashqaridagi faoliyatini nazorat qilish, darslarni tahlil qilishi, ular bilan turli suhabatlar o‘tkazish orqali tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash va muammoni hal qilish yo‘llarini izlash mumkin. Taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb aytgan chuqur ma’noli iborasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, aksincha yosh avlod tarbiyasining dolzarb masala ekanligi avvalgidan muhimroq ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Zero, farzandning oiladagi tarbiyasi, uning maktabdagi ta’limi hamda kelajakda o‘z yo‘lini topib ketishiga panja orasidan qarab, faqatgina ularning moddiy ta’minoti bilan ovora bo‘lib qolayotgan ota-onalar, tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar hanuzgacha uchrab turibdi. Buyuk islomshunos faylasuf Imom G‘azzoliy “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning

savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi” Bundan tashqari bolaning sog‘ligini ham nazorat qilish, mакtab shifokori bilan hamkorlikda bolaning tibbiy varaqasini ham tekshirish lozim. Agarda bola sog‘lom bo‘lsa, u holda psixolog u bilan suhbatlashib, xulqiy og‘ish sababini aniqlashi va uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z maslahatlarini berish lozimdir. Ushbu yoshdagi bolalar har doimgidan ham ko‘proq e’tibor talab bo‘lib qolishadi. Oilada yoki maktabda manashu e’tiborning yetishmasligi ularning xulqiy og‘ishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Yondashuvlarning turli – tumanligi shaxs xulqini og‘ishganligini tashxis qilish, uni profilaktikalash va ijtimoiy – psixologik yordam ko‘rsatish davomida bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni ochishda ham ko‘zga tashlanadi. Respublikamizda mакtab o‘quvchilari bilan ijtimoiy psixologik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. Zamonaviy mакtab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy psixologik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda: Maktab ma’muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta’minlangan oilalar farzandlariga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilinishi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o‘rganishadi. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan alohida shug‘ullanishadi. Maktabda psixologlari, bola qobiliyatları va qiziqishlarini o‘rganishadi. Psixoterapevt va psixologlar ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi. Maktabda mavjud bo‘lgan sog‘liqni saqlash xizmati mакtab o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi. Maktabda ijtimoiy ishga mакtab direktori yordamchilaridan biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo‘yicha direktor o‘rinnbosari mакtabning mакtabgacha tarbiya muassasalari, turli hukumat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e’tibor qaratadi. Ota-onalar qo‘mitasi ham o‘z o‘rnida tarbiyasi og‘ir bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy psixolog ishiga ikki yondashuv mavjud: u mакtab bilan hamkorlik qiladi yoki u mакtabning shtatli hodimi hisoblanadi. Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy psixolog tez-tez mакtabga borib turadi. Ota-onalar va o‘quvchilarining o‘zaro munosabatlarining yaxshilanishiga yordam

beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o‘qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug‘ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi. Ijtimoiy psixolog o‘quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o‘z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi.

“Tarbiyasi og‘ir” o‘smirlar jismoniy jihatdan sog‘-salomatdir, biroq ularning ta’lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o‘z tengdoshlaridan o‘qishda ortda qoladilar, sababi ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan. Garchi ular o‘zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o‘zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug‘ullana olishmaydi. “Tarbiyasi og‘ir” o‘smirlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o‘qishni xohlashmaydi, o‘qituvchilar, tengdoshlar, ota-onalar bilan nizolashadi. Maktabni tashlab ketishadi, o‘zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste’mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o‘spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo‘rlik oqibatida o‘z jonlariga qasd qilishadi. O‘spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo‘lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo‘lga qo‘yilganligi natijasdir. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasada bolani tarbiyalovchi omillarni boshqarsa, ko‘cha-kuyda boshqarib bo‘lmaydi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o‘smirlar bo‘sh vaqtlarini aksariyati aynan ko‘chada o‘tkazishadi. U yerda ularning muomalasi, ya’ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlaridan biri shakllanadi. O‘quvchi o‘spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o‘qishdir. Biroq o‘qish tarbiyasi og‘ir o‘smirlar uchun o‘qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vosita emas. Shuning uchun ular o‘zlariga muhim bo‘lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu yerda, o‘zi kabi o‘smirlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo‘pollik uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi. Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash joylarida bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib borish amaliyoti paydo bo‘lmoqda. Bu faoliyat

mikrotuman va maktabda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishning yagona rejasi bo‘yicha maktab va barcha ijtimoiy xizmatlarni bolalar tarbiyasi va himoyasi muammosini yechish uchun birlashtiradi.

Psixolog tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishslashda maktab va maktabdan tashqari jamoaning ular xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganadi. **Ular bilan ish olib borishda yaxshi natijalarga erishish uchun bir qator shartlarni bajarishi lozim:**

1.O‘smir bilan aloqa o‘rnatish

2.O‘smir bilan yaxshi o‘zaro munosabatlar o‘rnatish

3.Uning reaksiyasi, fikri, intilishlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalarini o‘rganish.

Psixolog A.B. Filonov tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv o‘smirlar guruhlari paydo bo‘ladigan mikro muhitlarga faol ta’sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma’lumotiga ko‘ra, voyaga yetmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo‘lib sodir etishadi. Biroq voyaga yetmaganlar orasida huquqbazarlikni bartaraf etish bo‘yicha ko‘pgina tavfsiyalar individual profilaktika tavfsiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek, ajratib olingan o‘smirning huquqbazarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilmagan natijalarga olib kelavermaydi. Bu holat huquqbazar o‘smirning yashash joyidagi guruhning a’zosi bo‘lganligi va a’zolariga bog‘liq bo‘lishi bilan izohlanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo‘lsa-da, jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me’yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e’tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo‘qotishlarga olib keladi. Shu bois, tarbiyasi va xulq-atvorida o‘zgarishi bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki, “tarbiyasi og‘ir” bolalarda bir qator o‘ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki,

ular:

-Ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda;

-O‘rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda;

- O‘ziga munosabatda va o‘zini o‘zi tushunishi;
- Ichki yagonalik, boshqalar bilan do‘stlasha olmasligi;
- O‘qishdagi qiyinchiliklarini boshdan kechirushi kabi.

Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar “tarbiyasi og‘ir” bolalarga yordam ko‘rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda:

1.Ishni differensial va individual tashkil etish: Bunda bolalarning tarbiyaviy-profilaktik jarayonda yosh va jinsiga qarab differensial hamda ularni har birini individual xususiyatlari qarab ishni rejalashtirish. Yordam faoliyatida xilma-xillikni ta’minlash, ya’ni vaziyat, shart-sharoitga qarab usullar, munosabat o‘rnatish.

2.Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish: “Tarbiyasi og‘ir” bolalar bilan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni o‘tkazish jarayonida ularni ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatlarga tayanib, u tashkil etilayotgan mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Albatta, yuqorida sanab o‘tilgan talablar umumiyydir, ammo “tarbiyasi og‘ir” bolalar bilan ishlayotgan vaqtida ularga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish uchun bir qator uslub va amallardan foydalanishni bilish lozim. Tarbiyada ta’sir ko‘rsatish usullariga ya’ni taqdirlash va jazolash yo‘llariga alohida e’tibor beriladi. “Tarbiyasi og‘ir” bolalar bilan ishlash jarayonida ham pedagog-tarbiyachilar ulardan samarali foydalanishlariga to‘g‘ri keladi. Taqdirlash bola xatti-harakatlarida ijobiy sifatlarni tarkib topishi va mustahkamlanishi uchun, jazolash esa ixtiyor etilmaydigan salbiy xususiyatlarni oldini olish va ulardan ogoh etish maqsadida foydalaniladi. Jazolash adolatli va bolaning shaxsini kamsitmagan holda samarali tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37- son, 426-modda
3. G. Shoumarov, B. Umarov, F. Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo‘yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo‘llanma. T- 2015
4. N. G’. Komilova. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.- 2007.
5. O. Qodirova, B. Parmonov Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi O‘quv-uslubiy majmua Andijon-2019.